



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

MAQSUD SHAYXZODA VA "JALOLIDDIN MANGUBERDI"

TRAGEDIYASI

Shermatov Dilyorjon Elyorjon oʻgʻli

TDTU talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayotiy kechmishlari va ijodi keng talqin qilingan. Shuningdek Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi haqida sōz boradi.

Kalit soʻzlar: Maqsud Shayxzoda, Oʻn sheʼr, Undoshlarim, Uchinchi kitob, Jumhuriyat, "Jaloliddin Manguberdi", tragediya, Temuriylar

Maqsud Maqsumbek oʻgʻli Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjon Respublikasi Ganja viloyati Oqtosh shahrida tavallud topdi. [1]. Boshlangʻich va Oʻrta maʼlumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtidan oʻqidi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar qoʻmitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim boʻlib ishladi. Shoirning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlandi uning "Oʻn sheʼr" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1934) toʻplamlari nashr etilishni boshladi. [2-3-4-5]. Otashin shoir mustabid tuzumning jabr-zulumidan chetda qolmad. U birinchi bor 1928-yili qamoqqa olindi. 3 yilga Oʻzbekistonga surgun qilingan edi. Yozuvchilar uyushmasidan oʻchirilib, 1952-yil 22-sentabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shoir Stalin vafotidan keyin ozodlikka



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

erishdi, ijodga qaytib, 1958-yili ko'hna va navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan "Toshkentnoma" lirik dostonini yozdi.[6]. 1960-yilda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozib, unda buyuk munajjim va ma'rifatparvar davlat arbobi Mirzo Ulug'bek obrazini yaratdi.[7]. Shayxzoda Pushkinning "Mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asri", Mayakovskiyning "Juda soz", Shekspirning "Hamlet" hamda "Romeo va Julyetta" tragediyalarini o'zbek tiliga o'girdi. Shoir 1967-yil Toshkentda vafot etdi. 2001-yili o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk hizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Shoir mahoratining o'sishiga, uning jahon adabiyoti klassiklarining asarlarini g'oyat sevib o'rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o'zlashtirgani ham sabab bo'ldi. U G'arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o'zining Vatan adabiyotini - Sharq she'riyati merosini ham to'la o'rgangan edi. Shayxzoda 1944-yilli "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasini yozib tugatadi. 1946-yilgacha "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasidan ayrim parchalar "Armu'gon" to'plamida bosilgan edi. Shundan keyin 43-yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini ko'rmadi. Asar sahnadan olingandan ko'p o'tmay Shayxzoda qamaldi. Bu asarga o'tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo'yildi. Shayxzodaning 2- jahon urushi yillarida yozgan Bu asari yani "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istelochilariga qarshi kurashgan s'ngi Xorazmshohning tarixan aniq va haqqoniy tasvirlangan. Shuningdek Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga jumladan "Jaloliddin Manguberdi" taqdiri va kurashiga odilona yondashganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan Elon qilingan O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1998-yil 24- sentyabrdagi "Jaloliddin



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

"Manguberdi" tavalludining 800- yilligini nishonlash to'g'risida yana bir bor tasdiqlaydi. Maqsud Shayxzodaning yozuvchilik shuri va ijodkorlik zehninging o'tkirligi yana bir bor isbotlandi. Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyotiga qo'shgan yana bir ulkan hissasi "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidir. Tragediya 1964- yili yozildi, o'sha yili asar Hamza teatri sahnasida qo'yildi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Maqsud Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amur Temur va Temuriylar davrida o'zbek xalqi hayotida ro'y bergan Uygonishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulu'gbekning hayotining s'ngi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o'rin egallagan mashhur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo'lganini ham haqqoniy ko'rsatgan. Shekspirona ko'lam va harorat bilan yozilgan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasining maydonga kelishi o'zbek dramaturgiyasi va teatr tarixida katta voqea bo'ldi. Shayxzoda senariysi asosida rejissor Farziyev tomonidan yaratilgan "Ulu'gbek yulduzi" filmi esa keng halq ommasiga ulu'g' o'zbek olimi va uning fojiali taqdiri bn yaqindan tanishish imkonini beradi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan, mustabit tuzumi davrida azob chekkan, shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Shayxzodaning 2- jahon urushi yillarida yozgan s'ngi xorazmshoxning tarixan aniq va haqqoniy tasvirlangan bu asari bilan ham o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan. Shayxzodadek ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o'rganishlik, ulardan habardor bo'lishlik hamda ularni hayotga tadbiiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqiyat sari yetaklaydi.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://turkona.uz/maqsud-shayxzoda-haqida-bilgan-va-bilmaganlarimiz>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirzo-ulug-bek-obrazi-talqinlari-sahna-nutqi-maktabi?ysclid=lpgtk8z511941960920>
3. Karimov. N, Mamajonov S, Nazarov B, Normatov U, Sharafiddinov O, " XX asr o'zbek adabiyoti tarixi".- T. O'qituvchi, 1999-544 b.